



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDI VA ULARDAN FOYDALANISH TARKIBI

Soataliyev Yorqinjon Minosibjon o‘g‘li

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: yorqinjonsoataliyev790@gmail.com

Annotatsiya: Yer resurslari – jahon yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. Yer, hudud inson hayotining asosi, poydevori, uning yashash maydonidir, o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Kalit so‘zlar: Yer fondi, jahon yer fondi, tuproq, tuproq bonitirovkasi, o‘rmon xo‘jaligi.

THE LAND FUND OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND COMPOSITION OF USE

Soataliyev Yorqinjon

Annotation: Earth Resources is the part of the world earth fund that is suitable for economic use. The Earth, the territory is the basis of human life, the foundation, the place of its residence, carries out its activities.

Key words: Land Fund, World Land Fund, soil, soil banitrophage, forestry.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yer yuzi mavjud edi, eng muhimi u almashtirib bo‘lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir. Yer, hudud inson hayotining asosi, poydevori, uning yashash maydonidir, o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Yersiz odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabat bo‘lishi mumkin emas. Qadim zamonlardan beri mamlakatlar o‘rtasidagi urushlarning asosiy maqsadi zo‘ravonlik bilan begonalarning yerlarini tortib olish xalqlarni o‘z yerlaridan chiqarib yuborish bo‘lgan.

Yer resurslari – jahon yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. U qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, o‘rmon xo‘jaligi, shuningdek, shaharsozlik va qishloq aholisining joylanishi, sanoat korxonalarining joylashuvi, transport-kommunikatsiyalari va boshqa barcha turdagi inson xo‘jalik faoliyati uchun zamin yaratadi. Eng katta maydonlarni qishloq xo‘jaligi yerlari (35% dan ortiq), o‘rmon va butalar (30%) egallaydi. Yer fondining 3% dan ko‘prog‘ini xo‘jalikning tarmoqlari, sanoat va transport egallagan. Qishloq xo‘jalik yerlari o‘zining tabiiy xususiyatlari va qishloq xo‘jaligida foydalanish maqsadi bilan farq qiladi. Qishloq xo‘jaligining asosiy toifalariga haydaladigan yerlar (tizimli haydaladigan va turli qishloq xo‘jalik ekinlarini

ekish uchun foydalaniladigan yerlar), ko‘p yillik ekinzorlar (bog‘lar), pichanzorlar va yaylovlar (o‘tloqlar va xo‘jalik hayvonlari uchun pichan yig‘iladigan yaylovlar) kiradi. Yer resurslari O‘zbekistonning eng cheklangan resurslaridan biridir. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi uchun o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan yerlar ko‘p emas.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yer miqdori yillar davomida kamayib bormoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi yer resurslaridan samarali foydalanishga ham bog‘liqdir. Mamlakatimizda yerdan foydalanish va boshqarish sohasidagi qonunchilik va huquqiy asoslari mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir” deb belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari yerni davlat tomonidan boshqarish sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar Yer kodeksidan va yer munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Yer kodeksining 1-moddasida: “Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deyilgan.

Davlat hokimiyati yerni boshqarish, yer resurslarini muhofaza qilish hamda yerlarni noqonuniy tortib olish va noto‘g‘ri ishlatishni to‘xtatish choralari ko‘radi. Jismoniy va yuridik shaxslar yerdan belgilangan maqsadlarga muvofiq foydalanishlari lozim.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlari 2021-yil yanvar holatiga ko‘ra, 3259,9 ming gektarni tashkil qiladi. Yoki jami yerlarning 7,3 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistonda jon boshiga atigi 0,09 gektar ekin maydon to‘g‘ri keladi, shuning uchun mamlakatda qishloq xo‘jaligini tobora intensiv rivojlantirishga harakat qilinmoqda. 2021-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizning umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etgan. Shu maydon foydalanuvchilar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalari foydalanishida bo‘lgan yerlar maydoni 1990-yilga nisbatan 2020-yilga kelib 12406,2 ming gektarga kamaygan. Bu o‘zgarish respublika hududida yaylov yerlarining o‘rmon yer toifalariga o‘tishi munosabati hamda boshqa toifadagi yerlar maydonining oshishi hisobiga ro‘y bergan. Umuman olganda, yer fondi umumiy maydonining 692,6 ming gektarga kamayishi faqat uzoq muddatga foydalanishga olingan yaylov yerlarni chegaradosh davlatlarga qaytarib berilganligi hisobiga kelib chiqqan.

Respublikada jami yer fondining 46,25 foizidan qishloq xo‘jalik korxonalari va tashkilotlari, 26,78 foizidan esa o‘rmon xo‘jaligi korxonalari foydalanmoqdalar. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar 1990-yilda 1821,2 gektardan 867,4 ga kamaygan. Lekin tabiatni muhofaza qilish,

sogʻlomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar 13,9 gektardan 710,4 ming gektarga koʻpaygan. Chunki, kelajakda ham aholi oʻsishi natijasida ularning yaxshi yashashi va tabiatni muhofaza etish uchun qoʻshimcha yer maydonlari ajratilaveradi. 1990-yilda respublika yer fondining 7258,6 gektar maydoni zaxira yerlar boʻlgan boʻlsa 2019-yilda bu koʻrsatkich 9437,7 gektarga yetgan. Bu yerlar jami yer fondining 24,7 foizini tashkil etadi. Toshkent viloyati boʻyicha yer fondi yerlarini tahlil qiladigan boʻlsak quyidagi diagrammadan koʻrinib turibdiki, eng koʻp ulush boshqa tarmoqlarda ishlatiladigan yerlar 36%, pichanzorlar va yaylovlar 29% ni, ekin yerlari 22% ga, eng kam maydon boʻz yerlar va meliorativ qurilish holatidagi yerlarga toʻgʻri keladi.

Mamlakatda yerdan foydalanishning asosiy tamoyillarga yerdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda ekin ekiladigan yerlarni muhofaza qilish majburiyati kiradi. Yerni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish uchun masʼul boʻlgan tashkilotlar tuproq unumdorligini yaxshilash, choʻllanish, shoʻrланish, tuproq eroziyasi va yer ifloslanishining oldini olish choralarini koʻradi. Davlat yerdan foydalanish ustidan qatʼiy nazoratni amalga oshiradi, yerdan foydalanishni rejalashtiradi va foydalanilmagan yerlarni hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xoʻjaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 5742-son farmoni.
2. Абдуллаев Х.А. Ўзбекистон тупроқлари. Тошкент, 1973.
3. Abdullayev S.A., Nomozov Q.X. Tuproq melioratsiyasi. Toshkent, 2011.
4. Boboxoʻjayev I., Uzoqov P., Xoliqulov Sh. Tuproqshunoslik. Toshkent. 2011.
5. Ziyomuxammedov A.E. Tuproq organik moddasi va unumdorligi. Toshkent, “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2008.